

UDC (UO‘K, УДК): 821.512.133

**NORMAN MEYLER VA SHUHRAT ASARLARIDA MUALLIF  
USLUBINING QIYOSIY TAHLILI<sup>5</sup>***Suyunova Maftuna Do‘sqobil qizi**O‘zbekiston Milliy Universiteti,**3- kurs tayanch doktoranti**Toshkent, O‘zbekiston**E-mail: [maftunasuyunova283@gmail.com](mailto:maftunasuyunova283@gmail.com)**ORCID ID: 0009-0001-6932-8843***ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada amerikalik yozuvchi N. Meyler hamda o‘zbek adibi Shuhrat ijodida muallif uslubining o‘ziga xosligi, xususan, psixologizm va ekzistensializm unsurlarining uyg‘unligi tahlil etiladi. Muallif tomonidan ilgari surilgan muammo urushdan keyingi inson ruhiyatining badiiy ifodalanishi, jamiyatda o‘z o‘rnini topa olmagan insonlar ruhiyatidagi ichki kurash, vijdon va axloqiy tanlovning badiiy talqini kabi dolzarb masalalarni adabiy tahlil obyekti sifatida o‘rganishdan iborat. Har ikki adib asarlarida inson ruhiyati, ijtimoiy muhitga nisbatan ichki kechinmalarning tasviri, shuningdek, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi murakkab ziddiyatlar chuqur ifoda topgan. Tadqiqotda adabiy tahlil, qiyosiy-tarixiy, psixologik yondashuv metodlari asosida asarlar o‘rganilgan. Meyler asarlaridagi “ichki monolog”, birinchi shaxs tilidagi hikoya, parodiya va metafora kabi uslubiy xususiyatlar bilan Shuhrat asarlaridagi vatanparvarlik, ruhiy iztirob va falsafiy-metaforik ifodaning badiiy tahlili olib borilgan. Maqolada bu ikki adibning badiiy olami va uslubiy yondashuvlari qiyosiy jihatdan o‘rganiladi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Shuhrat va N. Meyler asarlarida inson ruhiyatiga chuqur kirib borish, ichki kurashlarni badiiy tilda ifodalash orqali zamonasi jamiyatidagi muammolarga adabiy javob berish kuzatiladi. Ularning har biri o‘z uslubi va dunyoqarashi orqali inson va jamiyat o‘rtasidagi murakkab ziddiyatlarni san’at darajasida yoritishga erishgan.

**KALIT SO‘ZLAR**

N. Meyler, Shuhrat, ekzistensializm, psixologizm, muallif uslubi, ruhiy kechinma, shaxs va jamiyat, badiiy tahlil.

**Received:** June 23, 2025**Accepted:** July 18, 2025**Available online:** September 3, 2025

<sup>5</sup>**For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Suyunova M. Norman Meyler va Shuhrat asarlarida muallif uslubining qiyosiy tahlili. // Komparativistika (Comparative Studies). – 2025. – Vol.2, № 3(7) – B. 70-85.

## COMPARATIVE ANALYSIS OF AUTHOR'S STYLE IN THE WORKS OF NORMAN MAILER AND SHUHRAT

*Suyunova Maftuna Dosqobil qizi*

*3rd Year PhD student,*

*National University of Uzbekistan*

*Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [maftunasuyunova283@gmail.com](mailto:maftunasuyunova283@gmail.com)*

*ORCID ID: 0009-0001-6932-8843*

---

### ABSTRACT

This article analyzes the distinctive authorial style in the works of American writer Norman Mailer and Uzbek writer Shuhrat, particularly focusing on the harmony of psychological and existential elements. The author examines topical issues such as the artistic portrayal of post-war human psychology, the inner struggles of individuals unable to find their place in society, and the literary interpretation of conscience and moral choices. Both writers' works deeply express human psychology, inner experiences in relation to the social environment, and complex contradictions between the individual and society. The research employs methods of literary analysis, comparative-historical approaches, and psychological perspectives to study the works. The article compares stylistic features such as "internal monologue," first-person narration, parody, and metaphor in Mailer's works with the artistic analysis of patriotism, spiritual anguish, and philosophical-metaphorical expression in Shuhrat's works. The paper comparatively examines the artistic worlds and stylistic approaches of these two writers. In conclusion, both Shuhrat and Norman Mailer's works demonstrate a deep exploration of the human psyche, offering literary responses to contemporary societal issues through the artistic expression of internal struggles. Each writer, through their unique style and worldview, successfully illuminates the complex contradictions between individual and society at an artistic level.

---

### KEY WORDS

N. Mailer, Shukhrat, existentialism, psychology, authorial style, inner experiences, individual and society, literary analysis.

## СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ АВТОРСКОГО СТИЛЯ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ НОРМАНА МЕЙЛЕРА И ШУХРАТА

*Суюнова Мафтуна Дусқобил кизи*

*Докторант 3-го курса*

*Национальный университет Узбекистана*

*Ташкент, Узбекистан*

*E-mail: [maftunasuyunova283@gmail.com](mailto:maftunasuyunova283@gmail.com)*

*ORCID ID: 0009-0001-6932-8843*

---

### АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется своеобразие авторского стиля в творчестве американского писателя Н. Мейлера и узбекского писателя Шухрата, в частности, гармоничное сочетание элементов психологизма и экзистенциализма. Цель автора статьи заключается в изучении в качестве объекта литературного анализа таких актуальных вопросов, как передача художественными средствами особенностей послевоенной человеческой психики, показ внутренней борьбы людей, не нашедших своего места в обществе, художественная интерпретация проблемы совести и нравственного выбора. В произведениях обоих писателей глубокому анализу подверглись человеческая психика, внутренние переживания в их связи с социальной средой, а также сложные противоречия в отношениях между личностью и обществом. Изучение произведений двух авторов осуществлялось на основе методов литературного анализа, сравнительно-исторического и психологического подходов. В исследовании был проведен художественный анализ стилистических особенностей произведений Мейлера («внутренний монолог», повествование от первого лица, пародия и метафора) и произведений Шухрата (патриотизм, описание душевных страданий и философско-метафорическое выражение). В заключении был сделан вывод о том, что в творчестве Шухрата и Н. Мейлера представлено глубокое проникновение в человеческую психику, внутренние конфликты, выраженные при помощи художественного слова, как литературный отклик на проблемы современного общества. Каждый из авторов, благодаря своему стилю и мировоззрению, сумел на высоком художественном уровне осветить сложные противоречия между человеком и обществом.

### КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Норман Мейлер,  
Шухрат,  
экзистенциализм,  
психологизм, авторский  
стиль, внутренние  
переживания, личность  
и общество,  
литературный анализ.

## KIRISH

Biror ijodkor asarini tahlil qilishda albatta yozuvchining uslubi alohida ahamiyatga ega. Adabiyotshunos olim S. Mamajonov, *uslubni "idrok qilish" va "ifoda qilish"ni birlashtiradigan yozuvchining o'ziga xos individualligidir* – deydi. Xuddi shunday, N. Shukurov ham uslubga quyidagicha ta'rif beradi, *"Ijodkorning voqelikni o'zicha idrok etishi, voqea-hodisalarni o'ziga xos obrazlar va ifoda tasvir vositalari bilan aks ettirishi"*dir. (Shukurov.N., 1978, 7) Shunga qaramasdan, T. Boboyev *"uslubni asardagi badiiy tasvir vositalarining quruq arifmetik yig'indisi emasligini balki ularning yaxlit bir tizimga uyushishi, g'oyani ifodalashga, qahramon xarakterini ochib berishga xizmat qiladigan yozuvchi usuli ekanligini"* - ta'kidlaydi. (Boboyev T., 2002, 325) Uslub yozuvchini boshqa ijodkordan farqini ko'rsatib turuvchi unsur hisoblanadi. Yozuvchi yashab ijod qilayotgan davrda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga aynan mana shu uslubi orqali o'zining munosabatini bildiradi. Shunday ekan yozuvchi uslubini o'rganish va uni tushunish uchun, avvalo ikki yozuvchining ijodini qiyoslab o'rganish muhim hisoblanadi va aynan mana shu qiyoslash jarayonida yozuvchilar asarlaridagi mushtarak, ya'ni o'xshashliklar ham, farqli jihatlar ham borligi yaqqol seziladi. Shu asnodda yozuvchilar ijodidagi o'xshashliklar ularning yagona ijodiy metodga asoslanib ijod qilganliklarini anglatsa, ularni o'zaro bir-biridan farqlab turadigan jihatlari esa mualliflarning o'zlariga xos uslub sohibi ekanliklarini ko'rsatadi. Farqlanishlar asosan fikrni bayon qilish, voqealarni tasvirlash yo'li, obrazlar yaratish va ularni tasniflash, syujet, konflikt, kompozitsiya va xarakter yaratishda, shuningdek peyzaj, portret chizish, qahramonlar ruhiyatini ochib berishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Xususan, N. Meyler va Shuhrat asarlarini misol tariqasida olsak, har ikkala ijodkor yaratgan ijodiy ishlarining mavzusi, mazmuni, obrazlarida birmuncha o'xshashliklar bo'lsa-da, ular bir birlari bilan butunlay ajralib turadi. Chunki, mualliflarning voqealarni idrok qilishlari, uni badiiy ifodalashda qo'llagan usul va pozitsiyalari, yozish uslublari ham boshqa-boshqa hisoblanadi.

## ASOSIY QISM

Shu o‘rinda N.Meyler ijodiga nazar tashlasak, AQSh adabiyotida bir qancha olimlar yozuvchining uslubiga qiziqish bildirganlar. Ayniqsa, 1970-1990-yillarida Meyler asarlari asosida yaratilgan ilmiy izlanishlar hozirgacha o‘z dolzarbligini saqlab qolgan. Ushbu davrda adibning romanlari, publitsistik faoliyati, estetik qarashlari va ijtimoiy-falsafiy pozitsiyasiga oid turli tadqiqotlar e‘lon qilingan bo‘lib, ular orasida B. Lids, R. Puarie, L. Adam hamda R. Merrill kabi tadqiqotchilarning ishlari alohida o‘rin egallaydi. B. Lids o‘zining Meyler haqidagi monografiyasida yozuvchini amerika ijtimoiy muhitining tanqidchisi sifatida tahlil etadi. (Leeds B., 1969, 270) U Meylarning diqqat markazida siyosiy tizim, ommaviy axborot vositalari, qonunchilik sohasi hamda boshqa ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar turganini ko‘rsatadi. Lids Meylarning asarlaridagi tanqidiy ruh, ayniqsa amerika jamiyatining militarizatsiya, standartlashuv va ma‘naviy inqiroz jarayonlariga bo‘lgan munosabati orqali namoyon bo‘lishini ta‘kidlaydi. R. Puarie esa Meyler asarlarida shakllanadigan ichki dramatik to‘qnashuvlarni o‘rganib, “turli ovozlarda” yoki “noorganik shaxsiyatlar” o‘rtasidagi kurash motivining doimiy ishtirokini tahlil qiladi. Uning fikriga ko‘ra, bu obrazlar va ovozlarda qarama-qarshiligi jamiyatdagi individualistik inqiroz, shaxsiy va ijtimoiy o‘zlik muammolarining badiiy ifodasi sifatida qaralishi mumkin. Yozuvchi ijodining ekzistensializm bilan aloqador jihatlari L. Adams tomonidan yoritilgan. (Adams L., 1976. 102) U ayniqsa “Tungi armiyalar” (“The Armies of the Night”) romanida shakl va mazmunning yangi uyg‘unligi, ya‘ni real voqea real shaxs (ya‘ni muallifning o‘zi) ishtirok etayotgan badiiy struktura masalasiga alohida e‘tibor qaratadi. Bu roman adabiyotshunoslikda “roman-nonfikshen” (ya‘ni hujjatli-badiiy roman) janrining yorqin namunasiga aylangan. R. Merrill esa Meyler shaxsini amerika madaniyati va jamoaviy tafakkurining ajralmas qismi sifatida talqin etadi. (Merrill. R., 1992. 247) U Meylarni nafaqat yozuvchi, balki ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etuvchi shaxs sifatida o‘rganadi. Merrillning “Qaytgan Norman Meyler” (“Norman Mailer revisited”) nomli tadqiqoti muallifning roman janridagi asarlarini birinchi romanidan boshlab

1980-yillardagi ijodiy namunalargacha izchil o'rganadi. Ushbu asarda Meylarning uslubiy izlanishlari, ideologik pozitsiyasidagi o'zgarishlar, ayniqsa urush va shafqatsizlik motivlarining badiiy talqini chuqur tahlil qilinadi.

Umuman olganda, Meylarning Amerikadagi adabiy taqdiri va tanqidiy baholanishi uning shaxsiyati, jamiyatdagi faol ishtiroki va asarlarining ijtimoiy-falsafiy teranligi bilan uzviy bog'liq. Bu holat yozuvchining ikkinchi jahon urushi haqida yozgan asarlari, xususan "Yalang'ochlar va o'liklar" romanida ham o'z aksini topgan. Shuningdek, muallifning "Though guys don't dance" asarida syujet qurilishining asosiy prinsipi sifatida parodiya ishlatilgan. Asar 1980- yillar ijtimoiy haqiqatlari va madaniy muhitini aks ettiradi. Asarda muallifning postmodernistik yondashuvini ko'rish mumkin, u parodiya uslubi orqali ijtimoiy tanqidni amalga oshiradi va urushdan keyingi Amerikaning inqirozli kayfiyatini tasvirlaydi. Asarning bosh qahramoni jinoyatga aloqador o'tmishga ega yozuvchi Timoti Madden bo'lib, bu obraz yozuvchi uchun tipik: ruhiy muammolarga ega, yolg'izlikdan aziyat chekayotgan, lekin o'z ichki kurashi orqali jamiyatga nisbatan keskin fikr bildiradigan inson. Bu obraz ekzistensializmning asosiy qahramonlaridan biridir, ya'ni inson mavjudligining ma'nosini izlaydi, lekin atrofdagi dunyo unga befarq. Meyler uchun AQShning provinsial hayotini tasvirlovchi obraziga Provinstaun shahri asos qilib olinadi, ammo bu shahar real geografik makon bo'lishiga qaramay, asarda u ramziy ma'noni kasb etadi, ya'ni inson ruhining ijtimoiy yakkalanishini tasvirlaydi. Bu esa muallif qahramonlarining o'z ichki dunyosi bilan jamiyat o'rtasidagi ziddiyatni bildiruvchi metafora hisoblanadi. Meylarning ekzistensial qahramoni Kafkaga yaqin, u jamiyatda o'z o'rnini topolmaydi, hatto o'zini inkor etadi. Bu ayniqsa romandagi bosh qahramonning erkaklik xususiyati keskin psixologik iztirob va ekzistensial ziddiyat bilan ifodalanadi. Buni qahramon otasi bilan suhbatida quyidagicha tan oladi: *"Hey, Dougy," I said, "what's the virtue? You think I feel like a man most of the time? I don't. What was I protecting? You're an old-line fanatic. You'd put all the faggots in concentration camps including your own son if he ever slipped. Just cause you were lucky enough to be born with tiger's balls."* ("Hoy, Dugi," dedim, "buning

*nimasi fazilat? O'ylaysanki, men doim o'zimni erkakdek his qilamanmi? Yo'q. Nimani himoya qilayotgan edim? Sen eski aqidaparast odamsan. Agar o'g'ling bir marta xato qilsa ham, uni boshqa barcha besoqolbozlar qatori konslagerga jo'natarding. Shunchaki omading kelib, yo'lbarsning moyaklari bilan tug'ilgansan, xolos."*) Keltirilgan parchada yozuvchi qahramoni orqali zamonaviy erkak ongida yuzaga kelgan iztirob, erkaklik prinsiplariga mos kelmaslikdan kelib chiqadigan beqarorlik va ruhiy bo'linishni ko'rsatadi. Qahramonning o'zini inkor qiluvchi bunday postekzistensiallik holati, inson o'z o'rnini jamiyatda emas, balki o'z ichki dunyosida, tuyg'ularida yo'qotganini anglatadi. Bu jihat Meyler uslubida psixologizm va ekzistensializmning yorqin uyg'unligi sifatida talqin qilinadi.

"Harlot's ghost" (Fohishaning ruhi) N. Meylarning ekzistensializm va psixologizmning uyg'unlashuvi asosida postmodernistik usulida yozilgan asari hisoblanadi. Mazkur asarda adib bir qancha dolzarb masalalarni ko'taradi: kitobda tasvirlangan voqealardagi razvedka xizmatining roli, Amerika Qo'shma Shtatlarining siyosiy muammolari va ichki farovonligi, uning o'ziga xos milliylik xususiyatlari hamda ushbu mamlakatning ulug'vor g'oyalari inqirozga uchrashi ehtimoli haqida. Ushbu muammolar roman davomida ham global, ham shaxsiy darajada badiiy rivoj topadi. Rus olimasi Y.V. Chernetseva *muallif asarda "Alfa va Omega nazariyasi" deb ataluvchi g'oya orqali qahramonlar ichki dunyosida kechadigan qarama-qarshiliklarni ochib berishini ta'kidlaydi.* (Chernetseva.Y., 2010. 11)

Mavjud ziddiyatlar va dualizm motivi Meyler asarida nafaqat qahramonlarning psixologik kechinmalarida, balki jamiyatdagi mafkuraviy qutblanishda ham o'z aksini topadi. Aynan shu nuqtada yozuvchi maxsus xizmatlar faoliyatini inson ruhiyati va davlat mafkurasi kesishgan murakkab nuqta sifatida talqin etadi. Bu esa asarni nafaqat siyosiy-sotsial romanga, balki falsafiy-badiiy talqinga ham aylantiradi.

*"Is there any state more agreeable than living and working like a wicked angel?" (Yovuz farishta singari yashab, mehnat qilishdan-da yoqimliroq holat bormi?)*

Keltirilgan parchada adib josuslikni “yovuz farishta” misolida tushuntiradi va shaxsiy vijdon bilan davlat maqsadlari to‘qnashgan joyda inson qanday o‘zgarishini tahlil qiladi. Bu ibora josuslikni siyosiy jihatdan emas, balki ekzistensial hodisa sifatida ham namoyon qiladi. Agentlik hayoti insonni o‘z axloqiy mezonlariga qarshi qo‘yadi, foyda uchun yashirin dunyoda yurish insoniylikni yemiradi. Bu esa asardagi ikkiyoqlamalik g‘oyasiga misol bo‘ladi. Asar orqali yozuvchi maxfiy xizmatning jamiyatdagi mavqeyini ko‘rsatadi. Shunisi ahamiyatliki, ushbu kontekstda “arvoh” so‘zi ikki real va simvolik ma’nodan ishlatilgan, real ma’nodan razvedka xizmatining kuzatuv tushunilsa, simvolik ma’nodan shaxsiy erkinlikning yo‘qolishi, kuzatuvchilar tomonidan doimiy nazoratda bo‘lish hissi tushuniladi. Shuningdek, asarda Meyler urush haqida ham o‘z qarashlarini ifoda etadi. Uni ma’nisiz, tentaknamo ekanligini ta’kidlaydi. *“I do not know that I would wish to live in your empire. Sometimes I view it as a community of bees who cling to the leader in an ecstasy of enthusiasm and patriotism.”* (Men sizning imperiyangizda yashashni xohlaymanmi, yo‘qmi, buni bilmayman. Ba’zida men uni vatanparvarlik va xushomad bilan yetakchisiga yopishib olgan asalari to‘dasi deb qarayman.) Bu yerda “asalari to‘dasi” o‘xshatishi o‘sha davr tuzumiga xayrixohlar nazarda tutilganini ko‘rsatadi.

*“Profiteers, murderers, patriots, turncoats, informers, drug dealers, and double agents all swam in the same soup, and I became depressed once more over my competence to deal with such people.”* (Foyda ko‘ruvchilar, qotillar, vatanparvarlar, xoinlar, xabarchilar, giyohvand moddalar sotuvchilari va ikki tomonlama agentlarning barchasi bir qozonda qaynardi. Men yana bunday odamlar bilan muomala qilish qobiliyatim borasida tushkunlikka tushdim.) Ushbu parcha orqali yozuvchi satiradan foydalanib, jamiyatdagi ko‘zga ko‘rinmas illatlarni oshkora tanqid qilganligini guvohi bo‘lamiz. Bu yerda muallif “in the same soup” adabiy metaforasi bilan jamiyatdagi barcha axloqsizliklar, maqsadsizlik, jinoyatchilik, xiyonat, siyosat va josuslik tuzilmalari bu axloqiy jihatdan aralashgan makonda ekanligini bildiradi. Bu postmodernizmga xos “axloqiy relativlik”ni

bildiradi, ya'ni har kim bir vaqtning o'zida ham ijobiy, ham salbiy sifatga ega bo'lishi mumkin. Bu ayniqsa siyosat olamida ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shuningdek, biz muallifning ichki ahvolini ham ko'rishimiz mumkin vijdon, qadriyatlar hamda siyosiy muhit o'rtasidagi ziddiyatlar uni tushkunlikka soladi, bu esa insonning axloqiy va psixologik charchoq belgisi hisoblanadi. Meyler bunday misol bilan axloqiy me'yorlar yo'qolgan makonda, hatto vatanparvarlik ham jinoyat bilan yonma-yon yashashligini, bu holat insonni doimiy ichki halokat tomon yetaklashini nazarda tutadi.

Shuningdek, Meyler uslubining yana bir o'ziga xosligi bu ko'pgina asarlarining birinchi shaxs tomonidan hikoya qilinishidir. P. Burns o'zining "The first person of Norman Mailer" deb nomlangan tadqiqotida ijodkorning deyarli barcha asarlarida muallifning shaxsiyati bilan bog'liq ong turishini qayd etadi. U uni quyidagicha izohlaydi: "...Moreover, Mikey Lovett, Sergius O'Shaughnessy and Stephen Rojack all share important aspects of Mailer's personality and background". (Joseph.B., 1970. 3) Uchinchi shaxs tilidan ko'ra birinchi shaxs shaklida yozish adib ijodida o'z-o'zini anglash, hayotiy tajribasini badiiy tilda ifodalash imkonini beradi. Jumladan, "Barbary Shore", "The Deer Park" hamda "An American Tragedy" romanlari bir-biri bilan o'zaro bog'langan trilogiya sifatida namoyon bo'ladi, sababi ushbu asarlarning bosh qahramonlari Meyler shaxsiyatining turli xususiyatlarini aks ettiradi. Meylerning uslubi chuqur psixologik tahlillarga boy. U inson ruhiyatidagi murakkabliklarni tahlil qilishda o'zining ichki monologga asoslangan uslubidan foydalanadi. Uning romanlarida psixologizm voqealar zanjiridan muhimroq bo'lib, ichki kechinmalar, shubha, qo'rquv, o'zlik izlash va ruhiy og'riqlar asosiy o'rinda turadi. Xususan, yuqorida ismlari keltirilgan asar qahramonlarini olaylik, ushbu obrazlar o'rtasida psixologik tafovutlar mavjud bo'lsa-da, ularni bog'lab turuvchi asosiy g'oya — ekzistensial shaxsiyat masalasidir. Boshqa so'z bilan aytganda, bu qahramonlar jamiyatda o'z o'rnini topishga, hayotiy maqsadini anglashga va ichki haqiqatga erishishga intiluvchi insonlarning ramziy timsollaridir. Mikey hali no'noq, o'zini topa olmagan, ruhiy jihatdan zaif obraz sifatida namoyon bo'lsa, O'Shaunnessi undan ancha mustaqilroq, lekin hanuz ichki

savollarga javob topmagan holda tasvirlanadi. Rojak esa jamiyatning barcha qatlamlarida o'zini muvaffaqiyatli tutgan, ammo ichki haqiqatni izlashdan to'xtamagan, murakkab, ko'p qatlamli obraz sifatida ko'rsatiladi. Bu esa Meylarning psixologik realizmi ekzistensialistik yondashuv bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. U inson ongi ichidagi ikki qatlamni; tashqi-ijtimoiy muvaffaqiyat va ichki-ekzistensial bo'shliqlarni qarama-qarshi qo'yadi. Ayniqsa, Rojak obrazi orqali bu holat aniq namoyon bo'ladi: u nafaqat ijtimoiy jihatdan muvaffaqiyatli, balki o'z shaxsiy hayotidagi fojialar va aqliy izlanishlari bilan ham o'quvchini chuqur psixologik tahlil sari undaydi. N. Meyler ijodi zamonaviy insoniyatning eng dolzarb masalalari – o'zlik, erkinlik, ma'naviy izlanish va ruhiy kurashlarni markazga oladi. Uning uslubi chuqur psixologizm va ekzistensializmning badiiy sinteziga asoslangan. Uning asarlarida “birinchi shaxs” shakli faqatgina uslubiy vosita emas, balki falsafiy pozitsiya, ichki haqiqatning ifodasi, mavjudlik bilan yuzlashuvning badiiy shaklidir. Shu orqali u o'z davrining eng muhim masalalarini ochib beradi va adabiyot orqali zamonaviy ongga ta'sir o'tkazishga harakat qiladi. Meyler asarlaridagi bu jihatlarni o'zbek adibi Shuhratning nasriy asarlari bilan solishtirsak, har ikki adib ijodida urushdan keyingi insonning ruhiy holati, yolg'izlik, jamiyatda o'z o'rnini qidirish, mavjudlik to'g'risidagi savollarga javob izlash kabi mavzular uyg'unligiga guvoh bo'lamiz.

O'zbek adabiyotining taraqqiyotida betakror siymolar bo'lgan yozuvchilarimiz orasida Shuhrat o'zining serqirra faoliyati, fidokorona mehnati, badiiy tafakkuri va insoniy fazilatlari bilan alohida o'rin egallaydi. Uning ijodi XX asr o'zbek xalqining fojiali taqdirini, ruhiy kechinmalarini teran ifodalagan. Shoirning ijodiy yo'li, ayniqsa urush mavzusi bilan bog'liq asarlarida, inson ruhiyatining murakkabliklarini ochishda psixologik va ekzistensial yondashuvlar mujassam. Yuqorida adibning she'riy asarlari haqida to'xtaldik, uning she'riyatiga xos bo'lgan samimiylik, rostgo'ylik va badiiy yetuklik uning nasriy asarlarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, Shuhratning she'riyati va nasr asarlari o'rtasida ichki uyg'unlik va uzviy birlik mavjud. Bu uyg'unlik nafaqat mavzu va g'oya jihatidan, balki obrazlar tizimi, ichki mantiqiy rivojlanish va uslub borasida

ham o‘z ifodasini topgan. Muallifning nasriy asarlari xuddi she‘riyati kabi, yangi davr hodisalarini yoritish, odamlar tafakkuri va ongidagi o‘zgarishlarni aks ettirish, turli obrazlarni yaratish, xalqimizga xos fazilat va xarakterlarni ochib berishga bag‘ishlangan. Asarlarida vatanparvarlik, insonparvarlik, qahramonlik, mehnatsevarlik, ijodkorlik va fidoyilik kabi milliy qadriyatlar yetakchi o‘rinda turadi. Agar muallifning “Oltin zanglamas” asarida begunoh insonlarning nohaq jazolanishi, qatag‘on, adolatsizlik – qisqacha aytganda, pok vijdonli o‘zbek ziyolisining hayoti orqali diktatorlik tuzumining haqiqiy ko‘rinishi tasvirlansa, “Jannat qidirganlar” romanida esa xalq ruhi va erkin fikr kuchi badiiy ifodasini topadi. Haqiqatan ham, “Oltin zanglamas” romanida muallif bosh qahramon Sodiqni murakkab va sinovli hayot yo‘llari orqali olib o‘tadi. U hayotning og‘ir kunlarini boshidan kechiradi. Biroq Sodiq shunchaki jabrdiyda emas, u eng avvalo, kurashchidir. Qahramon hatto eng og‘ir lahzalarda ham o‘z taqdiriga bo‘ysunmaydi. Aksincha, u vijdoniga xiyonat qilmaydi, o‘z ezgu g‘oyalariga sodiq qoladi. Uning Vatanga bo‘lgan ishonchi – oltin singari sof va zanglamasdir. Sodiqning bunday sifatlari ekzistensial qahramon uchun muhim xususiyat hisoblanadi. Bu oltin ishonch, uning yuksaklikka intilgan e‘tiqodi, sinovlar qarshisida sobitligi – roman falsafasini, qahramon xarakterining asosiy g‘oyaviy yo‘nalishini tashkil etadi. Asarda Sodiqning ichki kechinmalari, hayotiy kurashlari, iztiroblari psixologik jihatdan chuqur ochib beriladi.

*“Sodiq ana shunday paytda tasodif bilan, qing‘ir yo‘l bilan bo‘lsa-da, frontga tushib qolganidan mamnun. Mamlakat boshiga juda mushkul va og‘ir kunlar tushgan shunday bir paytda o‘zining mahbuslar lagerida bo‘lishini tasavvur etolmaydi. Bordi-yu, stansiyada o‘sha oltin tasodif ro‘y bermasa, hozir lagerda o‘tirgan bo‘lsa nima qilardi? Albatta «frontga yuboring!» deb ariza bergan bo‘lardi. Lekin ruxsat etisharmidi? Ana shu dahshatli savol ichidan muzdek izg‘irin o‘tgandek qalbini huvullatib yubordi. Yo‘q, deyishsa, unda nima qilardi? Qiynalardi, yonardi, iztirob chekardi, balki yolvorardi - boshqa nima ham qila olardi. Hozir o‘sha lagerlarda jonini qurbon berish ishtiyoqi bilan yonib yotgan, ariza ustiga ariza yozayotganlar kammikin? (Shuhrat, 2018, 24) Sodiqning o‘z-*

o‘ziga berayotgan minglab savollari, uning ichki olamida kechayotgan keskin psixologik holatini ochib beradi. U o‘zini jamiyatda, Vatan oldidagi burchi nuqtayi nazaridan baholaydi. Ayniqsa, frontda bo‘lish istagini kuchli ijtimoiy va axloqiy ehtiyoj sifatida his qilishi, uning ruhiy kurashining markazida turadi. Bu holat ichki monolog orqali amalga oshiriladi, bu esa badiiy psixologizmning asosiy vositalardan biri sifatida qo‘llaniladi.

*“Yo‘q, noto‘g‘ri yo‘l bilan bo‘lsa ham Sodiq o‘z o‘rnini topdi. Uning joyi shu yerda, shu o‘qlar chaqrib, minalar portlayotgan, har lahza o‘lim sovuq el ufuqida turgan muqaddas yerda, shu okop, shu yerto‘lada. Dushman uning murdasi ustidan bosibgina bu yoqqa o‘tadi. Agar u dushmanga befarq qarasa, o‘z muqaddas Vatani uchun jon tikmasa, o‘zi o‘q uchib, o‘zi himoya qilmasa, boshqalar ham shunday qilmasa, unda el-yurt taqdiri nima bo‘ladi? Yo‘q! Buni u miyasiga sig‘dira olmaydi.”* (Shuhrat, 2018, 29) Ushbu satrlar qahramon ruhiyatini ifodalashda muhim mezon hisoblanadi, u ongli ravishda o‘z taqdirini tanlaydi. U hayotidagi keskin burilishni, o‘z joyining frontda ekanligini tan oladi. Bunda muallif ruhiy iztirob, ichki qaror qabul qilish jarayonini falsafiy-metaforik tasvirlar vositasida yoritadi.

Shuhrat “Jannat qidirganlar” romanini yaratish orqali, Sovet totalitar tuzumining bosimlariga qarshi dadil turgan. Asarda mustamlakachilik fosh etiladi, vatanparvarlik esa ulug‘lanadi. Asarda fidokorlar taqdiri yoritiladi. Yozuvchi Xo‘ja Saidakbar oilasi misolida fidokorlar hayotini ochib beradi. “Jannat qidirganlar” romani bugungi o‘quvchiga 60-yillardagi tarixiy jarayonlarni, xalq kayfiyatini, milliy uyg‘onish ruhini chuqur anglashga yordam beradi. Roman voqealari O‘zbekiston va sharq mamlakatlaridan birida kechadi. Muallif romanning asosiy g‘oyasiga — haqiqiy jannat Vatandadir, haqiqiy baxt esa mustaqillik va taraqqiyot orqali qo‘lga kiritiladi degan fikrni singdiradi. Ummatali, Nafisa, Alixo‘ja Azimxo‘jayev kabi ijobiy obrazlar orqali bu g‘oya mustahkamlanadi. Roman voqealari orqali xorijdagi milliy uyg‘onish, mustamlakachilikka qarshi ozodlik kurashi ancha keng va real talqinda ochilgan. Halol va vijdonli millatchi shifokor Abulbaraka, erkin fikrli ziyoli Zaytun va oddiy xorijlik fuqaro Zilol kabi obrazlar ham bu borada muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, yozuvchi asarni ikki yo‘nalishda olib boradi ya’ni voqealar ham yurtimizda, ham xorijda yuz beradi. Bir qarashda bu

ikki syujet yoʻnalishi bir-biriga zid boʻlishiga qaramasdan, yozuvchi mahorati orqali voqealar ham ichki, ham tashqi jihatdan bir-biriga oʻzaro bogʻlanadi. Bu avvalo, oʻtmish bilan uzviy bogʻlansa, ikkinchidan asar soʻngidagi bir-biriga zid xarakterdagi qahramonlar toʻqnashuvi orqali ifodalanadi. Asardagi asosiy qahramonlardan Ummatali mehribon, jonkuyar, Vatanga sodiq, mashaqqatli hayot yoʻlidan borib baxtga erishgan obraz sifatida gavdalansa, Saidakbarxoji obrazi esa makkor, xudbin, bemehr, boyligi va shon-shuhratini saqlab qolaman deb Vatanni tark etgan vatangado shaxs misolida tasvirlanadi. Yozuvchi har bir qahramonga oʻzgacha dramatik ruh bilan yondashadi, Ummatali obrazini tahlil qilsak, u osongina baxtga erishib qolmadi, asar mobaynida u bir qator hayot chigʻiriqlaridan oʻtadi, yaʼni avvaliga ota mehriqga toʻymasdan ulgʻayishi, nohaq tuhmat asosida qamalishi, ayolining xiyonatiga guvoh boʻlishi uning ruhiy holatiga doim taʼsir koʻrsatadi.

*“Qolgan koʻngil – chiqqan jon! Bola nima boʻladi? Bolasi, bitta-yu bitta bolasining kecha esiga kelmaganidan bugun hayron! Bola oʻzi uyda bormidi-yoʻqmidi? Koʻrinmadi shekilli. Yoki toʻpalondan qoʻrqib boshini koʻrpaga burkab yotgan edi-yu, Ummatali koʻrmadimi? U boʻyni yoʻgʻon yigit kim edi? Qimmatxonning hozirgi erimi yoki...”* (Shuhrat, 2021, 213)

Mazkur parchada muallif qahramonning ongidagi kechayotgan his-tuygʻularni tahrirsiz, toʻgʻridan-toʻgʻri tasvirlaydi. Bu esa oʻzbek adabiyotida kam uchraydigan, biroq zamonaviy adabiyotda ommalashgan “ichki monolog” usulining koʻrinishidir. Shuhrat bu yerda ruhiy boʻron ichida qolgan shaxsning fikrlari tarqoqligi, hissiy notekisligi aybdorlik hissi, Shubha va ikkilanishlarni badiiy til orqali yoritadi. Parchadagi *“qolgan koʻngil – chiqqan jon”* iborasi psixologik jihatdan metafora hisoblanib, Ummatalining tirik jismi bilan allaqachon oʻlgan qalbini, yaʼni ichki boʻshliqqa tushgan shaxsni ifodalaydi. Bu esa ekzistensial boʻshliq boʻlib, inson oʻzligining yoʻqolishi vujudi mavjud-u, ruhiyati soʻngan qahramon timsolini gavdalantiradi.

## XULOSA

Ikkala adib ijodini o'rganib tahlil qilish jarayonida shunga guvoh bo'ldikki, ular o'z asarlarida zamonasidagi jamiyatdagi voqea-hodisalarni, insonlarning xatti-harakatlari va urushning ruhiyatga ko'rsatgan ta'sirini chuqur badiiy tahlil etadilar. Har ikki yozuvchining asarlarida obrazlarning ruhiy kechinmalari orqali psixologik va ekzistensial muammolar ochib beriladi. Xususan, josuslik mavzusi har ikkala adib ijodida muhim o'rin egallaydi. Bu obrazlar ko'pincha jamiyatga, Vatanga xiyonat qilgan, o'z manfaati yo'lida ishlaydigan kimsalar sifatida tasvirlanadi. Shuhratning "Oltin zanglamas" romanidagi Mirsalim yoki "Jannat qidirganlar" asaridagi A'zam hamda Qoplonbek obrazlari bunga yaqqol misoldir. Ushbu obrazlar orqali muallif jamiyatdagi axloqiy inqiroz, ishonchsizlik va xoinlikning ildizlarini fosh etadi. Norman Meyler esa bu mavzuni ko'proq siyosiy va falsafiy nuqtayi nazardan yoritadi, josuslikni insoniylik va vijdon o'rtasidagi ziddiyat sifatida talqin qiladi. Shu bois ham, har ikki yozuvchining uslubi va badiiy yondashuvida o'ziga xos farqlar bo'lishiga qaramay, ularning qahramonlari ichki kurash, axloqiy tanlov va ongli qaror qabul qilish orqali ekzistensial xarakter kasb etadi.

Shuhrat va N. Meyler asarlarida psixologizm va ekzistensializm o'ziga xos tarzda uyg'unlashadi. Har ikki yozuvchi inson ichki olamini tasvirlash orqali jamiyatdagi kengroq muammolarni yoritadi. Shuhratda insoniy iztirob, milliy xotira va vatan sog'inchi markazda turadi. Meyler esa shaxsni jamiyatdagi ijtimoiy zo'ravonlik, siyosiy bosim va ichki axloqiy inqiroz orqali ochib beradi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Adams L. *Existential Battles. The Growth of Norman Mailer*. – Athens, 1976. – 102 p.
2. Ahmad S. Uch mungli qo'shiq, so'ngsiz imtihon // *Shuhrat. Adib hayotiga bir nazar*. – T.: Sharq, 1998. – B. 99–101.
3. Leeds V. *The Structured Vision of Norman Mailer*. – N.Y.: PBS, 1969. – 270 p.
4. Mailer N. *Harlot's ghost*. – N.Y.: Random House Trade Paperbacks, 1963. – 233 p.
5. Mailer N. *Tough guys don't dance*. – N.Y.: First Random House Edition, 1984. – 156 p.

6. Merrill R. *Norman Mailer revisited*. – N.Y., 1992. – 247 p.
7. Poirier R. *Mailer*. – L., 1972. – 174 p.
8. Qodirov P. Adib ijodiga bir nazar. –T.: Sharq, 1998. – B 126-127
9. Shuhrat. *Oltin zanglamas*. – T.: Yangi asr avlodi. –2018. – B.24
10. Shuhrat. *Jannat qidirganlar*. – T.: Zukko kitobxon. – 2021. – 448 b.
11. Shukurov N. *Uslublar va janrlar*. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1978. – 7 b.
12. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. –Тошкент: Ўзбекистон, 2002. –560 б.
13. Владимировна Ч.Е. *Романное творчество Н. Мейлера 1980-х–2000 годов: Социокультурный контекст, проблематика, поэтика*: Дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2010. – 11 с.

#### REFERENCES

1. Adams, L. (1976). *Existential battles: The growth of Norman Mailer*. Athens.
2. Ahmad, S. (1998). Uch mungli qo‘shiq, so‘ngsiz imtihon. In *Shuhrat: Adib hayotiga bir nazar* (pp. 99–101). Tashkent: Sharq.
3. Leeds, V. (1969). *The structured vision of Norman Mailer*. New York: PBS.
4. Mailer, N. (1963). *Harlot’s ghost*. New York: Random House Trade Paperbacks.
5. Mailer, N. (1984). *Tough guys don’t dance*. New York: First Random House Edition.
6. Merrill, R. (1992). *Norman Mailer revisited*. New York.
7. Poirier, R. (1972). *Mailer*. London.
8. Qodirov, P. (1998). *Adib ijodiga bir nazar*. Tashkent: Sharq.
9. Shuhrat. (2018). *Oltin zanglamas*. Tashkent: Yangi asr avlodi.
10. Shuhrat. (2021). *Jannat qidirganlar*. Zukko kitobxon.
11. Shukurov, N. (1978). *Uslublar va janrlar*. Tashkent: G‘afur G‘ulom Literature and Art Publishing House.
12. Boboyev T. (2002) *Adabiyotshunoslik asoslari*. Toshkent: O‘zbekiston.

13. Vladimirovna, C. E. (2010). *Romannoe tvorchestvo N. Meylera 1980-kh–2000 godov: Sotsiokul'turnyi kontekst, problematika, poetika* [The novelistic creativity of N. Mailer in the 1980s–2000s: Socio-cultural context, issues, poetics] (Candidate of Philological Sciences dissertation). Kazan